

**O'QUVCHILARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Zokirov Mirzraxim Abdualiyevich**

*QDPI mustaqil tadqiqotchisi*

**Abdunosirova Sevinchxon**

*Raximova Ruxshona 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarni ijtimoiy faolligi, ijtimoiy faollik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik faoliyatning o'rni haqida fikrlar bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье описаны социальная активность студентов, исследования социальной активности и роли педагогической деятельности в повышении социальной активности молодежи.

**Annotation.** In this article, the social activity of students, research on social activity and the role of pedagogical activities in increasing the social activity of young people are described.

**Kalit so'zlar.** faollik, ijtimoiy faollik, shaxs, ijtimoiylashuv, ijtimoiy ustavovka.

**Ключевые слова:** деятельность, социальная активность, личность, социализация, социальная организация.

**Keywords:** activity, social activity, personality, socialization, social organization

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichi ta'lim tizimi oldiga shaxsga mo'ljallangan, taraqqiy etgan ta'limni amalga oshirishni, ta'lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy muhim ko'rinishlarida o'z ifodasini topadigan faol, mas'uliyatli, tashabbuskor, mustaqil, ijodi shaxsni shakllantirishda tabaqlashtirish hamda raqobatbardoshlik xususiyatlarini rivojlantirishni e'tirof etmoqda. Bu o'z navbatida barcha davrlarda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligi masalalariga davlat siyosati darajasida qarash, ularni qo'llab-quvvatlash va yetarli shart-sharoit yaratish

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

mobaynida qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish pedagogik imkoniyatlarni yaratish zaruriyatini izohlaydi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ijtimoiy faollik yuksak intellekt, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy ong va siyosiy madaniyat asosida shaklananadi. Shuningdek, ijtimoiy faollikni rivojlantirishda so‘z erkinligi qadrlanadigan, qonun ustuvor bo‘lgan va fikrlar-xilma xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Zero, « bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o‘z oldimizga qo‘ygan ko‘p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, xar qanday vaziyatda xam mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g’ayrat-shijoatli, intellektual saloxiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida

muxim vazifalarni ishonib topshirishimiz”<sup>1</sup> ham jamiyatdagi fuqarolik madaniyatini shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbari fikricha, «bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi sharoitga aylanib borayotgani xech kimga sir emas. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, biz navqiron avlodimizning ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etmoqdamiz»<sup>2</sup>. Shuningdek, jamiyatimizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda yoshlarning jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvini amalga oshirishdagi faol ishtirokini ta’minalash, buning uchun uning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslarini yaratish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Zero, yoshlari, xususan, har bir shaxsning jamiyatdagi o‘ziga xos o‘rni, ularning huquq va erkinliklarini ta’minalash biz maqsad qilgan fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir. Binobarin, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagagi faol ishtirokini ta’minalash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan,

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent:”O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 491 b.

<sup>2</sup>Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. –Toshkent:”O‘zbekiston” NMIU, 2020. –394-b.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020 yil 30 iyundagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6017-sonli Farmoni qabul qilindi<sup>3</sup>. Bu farmon mamlakatimizda yoshlar siyosati bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarning izchil davomi sifatida bajarishimiz lozim bo'lgan ishlarimizni belgilab beruvchi dastur bo'ldi.

Bo'lgusi o'qituvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirish – O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish; o'zining va xalqining, Vatanning qadru qimmati, or-nomusini anglab, uni asrash, yuksak g'oyalar, yangi kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etish ruhida tarbiyalashdir. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish dunyoni milliy mustaqilligimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda anglash demakdir. O'zbekiston diyori va xalqimizning barcha sohalarga oid manfaatlarini o'z nuqtai nazari va hayotiy tamoyillariga tayangan holda amalga oshirish va jamiyat taraqqiyotiga mustaqil ravishda munosib hissa qo'shishdir.

Bugungi kunga qadar o'quvchilarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish va innovatsion jarayonlar asosidagi izlanishlar buyuk allomalarimiz tomonidan va respublikamiz olimlari, MDX davlatlarida hamda jahon mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan atroflicha o'r ganilgan. Biz ushbu tadqiqot ishlarimiz doirasida mazkur mavzu ustida ilmiy tadqiqot ishlarini, olib borgan olimlarning ishlarini taxlil qildik.

O'quvchilarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini turli bosqichlarda organaganligini ko'rishimiz mumkin.

X.M.Tojiboyeva<sup>4</sup> “O'quvchi yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/4880189>/Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. ПФ-6017-сон 30.06.2020

<sup>4</sup> Тожибоева X.М.Ўқувчи ўшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик тизими Фалсафа доктори (ПХД) илмий даражасини олиш учун ёзилган афт. Тошкент-2018.- (7-8-6)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tizimi” deb nomlangan tadqiqot ishida o‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi, shaxs ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlar va ularning tarixiy taraqqiyot yo‘li tahlili haqida fikr yuritilgan.

M.Q.Raxmonova<sup>5</sup> “Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish” deb nomlangan tadqiqot ishida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning me’yoriy huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari, talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning tarixiy taraqqiyoti, xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirish tamoyillari, ijtimoiy faollikning dolzarb pedagogik muammo sifatidagi mazmuni va amaliyotdagi axvoli ilmiy taxlil etilgan.

D.B.Mahmudova<sup>6</sup> o‘quvchilarni mehnat va kasb ko‘nikmalari vositasida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi va mehnat va kasb ko‘nikmalari vositasida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish sohasidagi ijtimoiy-tarixiy tajribalar xususida fikr yuritilgan.

X.X.Xamzayev<sup>7</sup> boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning metodik ta’minoti, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini asosiy komponentlari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali metod, shakl va vositalarini o‘zaro integratsiyalash tizimi hamda uning aloqadorlik va izchillik tamoyillari, ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiy komponentlari va ularga mos ravishda baxolash mezonlari ishlab chiqilgan.

S.R.Zohidova<sup>8</sup> ijtimoiy moslashuv va bo‘lajak boshlang‘ich sinf

<sup>5</sup> Raxmonova M.Q Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. . Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Samarqand-2019( 8-9-bet)

<sup>6</sup>Mahmudova D B.Mehnat va kasb ko‘nikmalari vositasida umumiyo‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning didaktik asososlari.Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Toshkent-2019. ( 6-bet)

<sup>7</sup> X.X.Xamzayev Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Toshkent-2019( 8-9-bet)

<sup>8</sup> Zohidova S.R. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari. Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Samarqand-2019 ( 8-9-bet)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

o‘qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishning o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari xaqida fikrlar yuritilgan.

Talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish – har bir talabada o‘z xalqining tarixi, milliy-ma’naviy qadriyatları, oz vatanining keljagi va istiqbolini ko‘ra bilish va uni qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o‘z erkinliklari bilan birqalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to‘laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir.

Mazkur izoh bizning tadqiqotimiz uchun mazmunan e’tiborlidir.

**Bizning fikrimizcha faollik o‘zini faoliyat jarayonida xatti-xarakatlarini namoyon etishidir.**

Jamiyatda ijtimoiy faollik alohida harakatlar, jamoat birlashmalari, siyosiy partiylar va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyati orqali kuzatiladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatdagi o‘zgarishlarga, islohotlarga o‘zining munosabatini bildirishdagi tashabbuskorligida namoyon bo‘ladi. Bu borada yoshlarning ijtimoiy harakatlari muhim ro‘l o‘ynaydi. Ijtimoiy harakatlar yoshlarning qiziqishi, istaklari, ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olgan holda harakat qiladi va ulrning manfaatlarini himoya qiladi.

Xulosa qilganda, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda maktab ta’limining, mahoratli pedagogning o‘rni yuqori hisoblanadi. Pedagogning perceptiv qobiliyatlarining rivojlangnaligi o‘quvchi-yoshlar bilan ishlashda ko‘plab qulayliklarni yuzaga keltiradi. Shu bois ham bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularda kasbiy-pedagogik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan birga perceptiv qibiliyatlarini ham o‘stirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.**

1.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent:”O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 491 b.

2.Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. – Toshkent:”O‘zbekiston” NMIU, 2020. –394-b.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

3.Tожибоева Х М.Ўқувчи ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик тизими Фалсафа доктори (ПХД) илмий даражасини олиш учун ёзилган афт.Тошкент-2018.- (7-8-б)

4.Raxmonova M.Q Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. . Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Samarqand-2019( 8-9-bet)

5.Mahmudova D B.Mehnat va kasb ko'nikmalari vositasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning didaktik asososlari.Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Toshkent-2019. ( 6-bet)

6.Xamzayev X.X Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Toshkent-2019( 8-9-bet)

7.Zohidova S.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari. Falsafa doktori (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Samarqand-2019 ( 8-9-bet)